



**QIMMATVAHO OMONQORA (QORAQOVUQ) - UNGERNIA
O'SIMLIGINING TAVSIFI , O'ZIGA XOS DORIVORLIK
XUSUSIYATLARI VA TURLARI**

Rahmonova Sevara Shuhrat qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya

yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Рахмонова Севара Шухратовна

Джизакский государственный пе-

дагогический университет

факультет естественный наук

студентка 4 курса

Rakhmonova Sevara Shukhratovna

4th year student of the Faculty of

Natural sciences Biology department

Jizzakh State Pedagogical University

Annotatsiya. Maqolada O'rta Osiyo florasing noyob dorivor o'simliklaridan biri omonqora- ungernia o'simligining botanik tavsifi, o'ziga xos bir qancha foydali shifobaxshligi bilan ko'plab kasalliklarni davolashdagi amaliy ahamiyati, kimyoviy tarkibi hamda mazkur o'simlikning aniqlangan turlari haqida bat afsil ma'lumotlar yoritib berilgan. Omonqora tarkibida alkaloidlar , ayniqsa, galaktamin va likorin mayjud bo'lib, ular tibbiyotda muhim ahamiyatga ega.

Аннотация. В статье дано ботаническое описание одного из уникальных лекарственных растений флоры Средней Азии - растения омонкара-хунгерния, его практическое значение в лечении многих заболеваний, обладающее уникальными полезными лечебными свойствами, подробные



сведения о его химическом составе и выявленных видах этого растения. Омонкара содержит важные в медицине алкалоиды, особенно галактамин и ликорин.

Annotation. The article provides detailed information about the botanical description of the plant, one of the rare medicinal plants of the Central Asian flora, the plant Amonkara-ungernia, its practical importance in the treatment of many diseases with its unique beneficial properties, chemical composition, and identified species of this plant. Amonkara contains alkaloids, especially galactamine and lycorine, which are of great importance in medicine.

Kalit so'zлari: *Ungernia victoris, galaktamin, likorin, Ungernia severtzovi, miopatiya, Altsgeymer, miasteniya gravis, gardenin, alkaloидlar.*

Ключевые слова: *Ungernia victoris, галактамин, ликорин, Ungernia severtzovi, миопатия, болезнь Альцгеймера, миастения, гарденин, алкалоиды.*

Key words: *Ungernia victoris, galactamine, lycorine, Ungernia severtzovi, myopathy, Alzheimer's, myasthenia gravis, gardenin, alkaloids.*

Omonqora (*Ungernia vicrotis*) - sipohiguldoshlar (Amaryllidaceae) oиласига mansub noyob o'simliklardan biri bo'lib, asosan O'rta Osiyoning tog' oldi va yarim cho'l hududlarida uchraydi. Ushbu o'simlik dorivorlik xususiyatlari tufayli qadimdan tibbiyatda ishlatilib kelinadi. Tarkibida alkaloidlar bo'lganligi sababli asab tizimi, yurak qon tomir kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Qoraqobiq deb ham ataladigan bu o'simlik- ko'p yillik piyozboshqoli hisoblanib, yer ustki qismi dumaloq yoki tuxumsimon piyozboshqoq shaklida bo'lib, zinch qattiq qobiq bilan qoplangan. Uning diametri 3-7 sm gacha yetishi mumkin. Piyozboshning tubi yaxshi rivojlangan , uzunligi va yo'g'onligi 2-3 sm , undan sersuv mo'rt sariq -pushti qalinligi 0,3-0,4 sm va uzuznligi 10-25 sm ildizlar chiqqan.

Barglari keng tasmasimon yoki kamalak shaklda , uzunligi 20-50 sm, eni 1-4 smga yetadi. Gullari qo'ng'iroqsimon yoki quvur shaklida bo'lib, och pushti, qizg'ish yoki binafsha rangda bo'ladi. Mevasi uch qismga bo'lingan quti (qopqoqcha) meva



hosil qiladi, ichida mayda qora urug'lari bo'ladi. Fevral oyining oxirida o'sishni boshlaydi, aprel oyining o'rtalarida to'liq shakllanib, may oylarida quriydi . Bir necha oydan so'ng balandligi 12-30 sm to'mtoq gulpoya hosil qiladi, asosan, iyul oyi oxirida -avgust boshlarida gullab, mevasi sentabr oyida pishib yetiladi.

Omonqora o'simligi Xisor tog' tizmasining tog' yonbag'grida , shag'alli joylarda va jarliklarda dengiz sathidan 800dan 2700m balandlikda o'sadi. Omonqora urug'lari yordamida va vegetativ yo'l bilan ya'ni piyozboshlari orqali ko'payadi. Ushbu tur O'zbekistonning bir qancha hududlarida ham tarqalgan. Asosan tog' oldi va dasht joylarida, qumaloq va toshloq tuproqlarda o'sadi. U O'zbekistonning quyidagi hududlarida uchraydi:

- * Toshkent viloyati- Chirchiq, Parkent, Bostanliq tumanlari;
- * jizzax viloyai- Nurota tizmalari, Forish tumani;
- * Samarqand viloyati- Zarafshon tizmalari, Urgut tumani;
- * Navoiy viloyati- Qizilqum cho'li, Nurota tog'lari;
- Surxondaryo viloyati- Baysun va Sherobod tumanlari;
- * Qashqadaryo viloyati- Hisor va Kitob tizmalari ushbu hududlarda omonqora quruq va issiq iqlimga moslashgan, to'liq quyosh tushadigan joylarda yaxshi o'sadi.

Qoraqovuq o'simligi tarkibida turli xil foydali alkaloidlarni saqlaydi. Eng asosiyлари galaktamin, likorin , flavonoidlar. Amaryllidaceae oilasiga kiruvchi o'simliklarni kimyoviy jihatlarini o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan. Shu vaqt mobaynida bu oilaning Markaziy Osiyoda keng tarqalgan ikki turi Ungernia Severtzovi , Ungernia victoris o'rganib kelinmoqda. Bu o'simliklarda turli xil alkaloidlar aniqlangan va uning kimyoviy hamda farmakologik xossalari chuqr tadqiq etilgan. Uning tarkibiodagi asosiy alkaloidlardan biri galaktamin moddasidan foydalananib dorilar, achchiq oq parashok tayyor-langan. Tibbiyotda qo'llanishiga kelsak, u tana va silliq muskullar tonusi pasayganda, harakatlantiruvchi va sezuvchi nervlar funksiyasi buzilganda , poliomiyelit va bolalarning serebral falajida , asab impulslarini yaxshilashda, Altsgeymer kasalligi va miasteniya gravisni davolashda ishlatilinadi. Shu bilan birgalikda, ichak va siydir pufagi atoniyasini davolashda

hamda oshqozon va ichak kasalliklarini funksional rentgen tashxisida ishlatiladi. Galaktamindan tashqari boshqa alka-loidlar Likorin, gardenin, tasettin, pankratin ham olinadi. Likorin alkaloidi- o'tkir va surunkali bronxit kasalligini davolashda ishlatiladi hamda yallig'lanishga qarshi va siyidik haydovchi ta'sirga ega. Aprel oyining 14-kunidan 25-kunigacha bo'lgan vaqtida omonqora barglari yig'ish uchun tavsiya etiladi. Sababi alkaloidlar va galaktaminning yig'indisi barglarning rivojlanishining dastlabki davrida maksimal darajaga yetadi. Ulardagi alkaloidlar miqdori 0,50dan 0,52% gacha , galaktamion miqdori 0,13dan 0,15%gacha.

Qoraqobiq turlari haqida

Ungernia dorivor o'simligining ikki turi aniqlangan. Ulardan biri Ungernia victoris(omonqora)- chuchmomodoshlari oilasi (Amaryllidaceae) vakili ko'p yillik o't o'simlik.



1-rasm. *Ungernia victoris*

Piyozi tuxumsimon , diametri 4-7 sm bo'lib, yuqori qismi qora qo'ng'ir rangli yupqa qobiq bilan o'ralgan. Ildizoldi barglari 7-10 dona , ingichka , tekkis qirrali , 2-3 sm kenglikda va 20-25sm uzunlikda bo'lib ikki qator joylashgan. Yerdan qor

ketmasdanoq o'simlikning ildizoldi barglari ko'karadi. Yoz oylarida barglari qurib qoladi. Bir-ikki oydan so'ng bargsiz poyasi o'sib chiqadi. Poyaning uzunligi 5-10sm , uchida oddiy soyabonga to'plangan va bir tomonga egilgan gullar joylashgan. Gul qo'rg'oni oddiy , voronkasimon 6 ta ingichka lansetsimon, sariq-pushti, ichki qismi qizil rangli tojbargdan tashkil topgan. Chanchisi 6 ta , urug'chisi 3xonali , yuqoriga joylashgan. Mevasi pishganda ochiladigan 3 chanoqli ko'sakcha.



2-rasm. *Ungernia victoris* bargi va piyozi

Ungernia Severtzowi

Ungerniya turkumining yana bir turi - *Ungernia Severtzovi*- (qoraqovuq). chuchmomodoshlar oilasiga mansub ko'p yillik, yer ostida piyoz boshisi bo'lган o'simlik. Piyozi qora yoki qora qo'ng'ir rangli qobiqlar bilan qoplangan. Ildizoldi barglari chiziqsimon 4-10 tagacha bo'ladi, gul poyasi bargsiz bo'lib , ildizoldi barglari qurib qolgandan so'ng bir ikki oy o'tgach o'sib chiqadi. Gullari qizg'ish , poya uchida oddiy soyabonga to'plangan. Gulqo'rg'oni oddiy voronkasimon , Chanchisi 6 ta . urug'chisi uch xonali . Mevasi pishganda ochiladigan uch chanoqli ko'sak. Bargi sersuv, yo'g'on silliq , chiziqsimon uchi to'mtoq bo;lib, uzunligi 20-40 sm, eni 1-4sm.



3-rasm. *Ungernia severtzovi*.

Xulosa. Dunyo bo'ylab o'rganilgan va hozirgi kunda ham tadqiq etilayotgan dorivor o'simliklar qatoridan joy olgan Qoraqobiq o'simligi ko'plab insonlar tomonidan piyozboshlari kovlab olib ketilayotganligi sababli "Qizil kitob" ga kiritilgan . Bu qimmatbaho o'simlik preparatlari poliomiyelit kasalligidan keyingi paralich kasalligida hamda ichak va siydik qoplari qattiq og'riganda ham qo'llaniladi. Galaktamin gidrobromid tuzi miosteniya , miopatiya, polinevrit, radikulit, nervlarning travmatik buzilishida , ichak va qovuqning bo'shashishida ishlatiladi. Uning tarkibida o'ta kuchli ta'sirga ega alkaloidlar mavjud va bu tibbiyotda muhim ahamiyayga ega . Shu sababli har birimiz barcha dorivor o'simliklarni asrashimiz, ko'payishiga imkon berishimiz va albatta, kerakli miqdorda samarali yo'lida foydalanishimiz zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L.X.Yoziyev., N.Z. Arabiova .Dorivor o'simliklar. Toshkent-2017
2. M.X.Begmatov, A.A.Elmurodov, SH.SH.Shernazarov, A.A.Nurniyozov- "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi".
3. Abduraimov O.C., Maxmudov I.E., Erdonov Sh. “ Turkiston tog' tizimida tarqalgan Elwendia Boiss turkumi turlari”.
4. Mustafayev S.M Botanika, Toshkent-2002.
5. Kursanov A. va bosghqalar. Botanika, Toshkent-1963.
6. Burigin V.A., JongurasovF.X. Botanika, Toshkent-1977.
7. planta-medica.uz
<https://planta-medica.uz> › ungernia-victoris-vved-ex-art...
8. *Введенский А. Е.* Род 299. Унгерния — Ungernia
<https://uz.wikipedia.org>.